XALQ DEPUTATLARI ZOMIN TUMANI KENGASHI QARORI

2023 - yil 29 - dekabr VI-53-133-3-48-K/23 Zomin tumani hokimligi

Zomin tumanining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrdagi “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-sonli Qonuni, Xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashining 2023-yil 29- dekabrdagi VI-50-301-3-0-K/23-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksining 99-moddasi hamda viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 27-dekabrdagi 01-20-08-01-33/424-sonli xatiga asosan Zomin tumanining 2024-yil uchun mahalliy budjetini qabul qilish bo‘yicha xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrdagi “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” O‘RQ-886-sonli Qonuni, xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi VI-50-301-3-0-K/23 qaroriga muvofiq Zomin tuman mahalliy budjetining 2024-yil uchun daromadlari 88 116 150,0 ming. so‘m, xarajatlari 200 558 810,0 ming. so‘m prognoz qilinganligi hamda respublika budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 82 085 685,0 ming. so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

3. 2024-yil uchun Zomin tumani mahalliy budjeti kontingent daromadlar prognozi 1-ilovaga muvofiq,

4. 2024-yil uchun Zomin tumani mahalliy budjet daromadlarining tuman mahalliy budjetida qoladigan qismini asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 2-ilovaga muvofiq,

5. 2024-yil uchun Zomin tuman mahalliy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq,

6. 2024 yil uchun Zomin tuman mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me’yori 4-ilovaga muvofiq,

7. Zomin tumani mahalliy budjetining 2024-yil daromadlari rejasi 5-ilovaga muvofiq,

8. Zomin tuman budjetining 2024-yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi 6-ilovaga muvofiq,

9. Zomin tumani mahalliy budjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori 7-ilovaga muvofiq,

10. 2024-yil uchun tumanda qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar o‘yicha mutloq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 8-ilovaga muvofiq,

11. 2024-yil uchun tumanda jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 9-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

12. Tuman budjetining 2024-yil uchun zaxira jamg‘armalari tegishli budjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining (bundan tuman budjetining jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirishga doir mablag‘lari mustasno) kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

Zomin tuman budjetini ijro etishda yuqori turuvchi budjetdan ularga ajratiladigan budjetlararo transfertlarning prognozidan oshgan qismi uchun tuman budjetining zaxira jamg‘armalar miqdorlariga aniqlashtirish kiritilmaydi.

13. 2024-yil uchun tuman budjetining daromadlarini shakllantirishning o‘ziga

xos xususiyatlari

2024-yilda quyidagi soliq turlari:

a) tuman budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari

b) Quyidagilar viloyat mahalliy budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

aylanmadan olinadigan soliq;

qonunchilikda belgilangan miqdorlardagi davlat bojlari (patent bojlaridan va litsenziyalar berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan jarimalar;

ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig‘imlar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig‘imlardan, g‘ildirakli transport vositalari, o‘ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig‘imidan, shuningdek avtotransport vositalari oynalarining tusini o‘zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to‘lovdan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo‘yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;

davlat aktivlarini joylashtirishdan, foydalanishga (ijaraga) berishdan va sotishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar;

v) Tuman budjetiga quyidagi ulushlarda:

yuridik shaxslar yer solig‘i 80 foizi;

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i 25 foizi;

yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i 50 foizi;

xususiylashtirishdan tushadigan tushumning 50 foizi Zomin tuman mahalliy budjetiga o‘tkaziladi.

14. Mobil aloqa xizmatlari, tamaki va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlardan 30 356 975 ming so‘m miqdorda tuman budjetiga o‘tkaziladi.

15. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Z.Omonqulov), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (D.Mamatqulov), tuman soliq inspeksiyasi (G‘.Xudayqulov) va mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

Tuman mahalliy budjetining birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjeti prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tuman mahaliiy budjetiga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

16. Tuman soliq inspeksiyasi (G‘.Xudayqulov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlililar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati

tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

17. Tuman soliq inspeksiyasi (G‘.Xudayqulov), Kadastr agentligi Zomin tuman bo‘limi (X.Tolipov) 2024-yildan boshlab yuridik shaxslar mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarga 1 m^2 uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, tumanda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlasin.

18. Tuman soliq inspeksiyasi (G‘.Xudayqulov), tegishli tuman tashkilotlari bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan kar’erlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan kar’erlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan kar’erlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan kar’erlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

19. Majburiy ijro byurosi tuman bo‘limi (N.Bo‘taev) tuman soliq inspeksiyasi (G‘.Xudayqulov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha amaliy chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

20. Tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (S.Parmanov), oila va xotin-qizlar bo‘limi (N.Omonova), tegishli tuman tashkilotlari

bilan birgalikda jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organiga amaliy yordam ko‘rsatsin.

21. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Z.Omonqulov) tegishli mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda:

bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini aniqlash bo‘yicha xatlov ishlarini samarali tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra tumanda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlari ro‘yxatini shakllantirish;

shakllantirilgan ro‘yxatga asosan bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash;

bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar va
video-materiallar tayyorlash;

xususiylashtirilishi mo‘ljallangan bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini «e-ijro auksion» maydonchasi orqali sotish ishlarini jadallashtirish vazifasi yuklatilsin.

22. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Z.Omonqulov) tegishli mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda tashqi reklama ob’ektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama ob’ektlari bo‘yicha shartnomalar tuzish choralarini ko‘rsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni budjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatish va har chorakda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan Kengashga hisobot berish vazifasi yuzlansin.

23. Tuman irrigatsiya bo‘limi (M.Abdullaev) va tuman soliq inspeksiyasi (G‘.Xudayqulov) tegishli tuman tashkilotlari bilan birgalikda tumanda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budjetga to‘liq undirib olish vazifasi yuklatilsin.

Bunda, qishoq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resurslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

24. Kengashning mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida budjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga, monitoring qilishga;

mahalliy budjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etish va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

25. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Z.Omonqulov)ga Zomin tuman budjeti jami xarajatlarining kamida 10 foizi biroq, 6,0 mlrd.so‘mdan kam bo‘lmagan miqdorda rejalashtirish hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, tuman xalq deputatlari, Yoshlar ishlar agentligi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari, budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga masul etib belgilansin;

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek, qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

26. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Z.Omonqulov), xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati, tuman tegishli muassasa va tashkilotlar bilan birgalikda:

mahalliy budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga har chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

27. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Z.Omonqulov) Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa

ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

28. Mazkur qaror “Sharq tongi” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

29. Tuman Adliya bo‘limining 2023-yil 20-dekabdagi 1-17/20-7//65-sonli taqdimnomasiga asosan Xalq deputatlari Zomin tuman Kengashining 2023-yil 14-dekabrdagi VI-53-131-3-48-K/23 sonli Qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

30. Ushbu qaror qabul qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

31. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Z.Omonqulov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **A.Abdug'aniyev**

Xalq deputatlari Zomin tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-53-133-3-48-K/23-son qaroriga
1-ilova

Zomin tumani mahalliy byudjeti kontingent daromadlarining 2024-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/R	Daromad turlari	Jami
JAMI		**188 798 000,0**
1	YaTT uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 514 000,0
2	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	7 830 000,0
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	26 000 000,0
4	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	10 431 000,0
5	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	110 000,0
6	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	6 097 000,0
7	Korxonalar aylanmasidan soliq	9 536 000,0
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	86 505 000,0
9	Aksiz solig‘i, jami	8 399 000,0
	shu jumladan:	
	- benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq	8 399 000,0
10	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	5 168 000,0
11	Yuridik shaxslar yer solig‘i	14 143 000,0
12	Noruda qurilish materiallari uchun yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	174 000,0
13	Yig‘imlar	1 044 000,0
14	Davlat boji	4 733 000,0
15	Jarimalar	5 137 000,0
16	Davlat unitar korxonalari sof foydasidan ajratmalar	177 000,0
17	Xususiylashtirishdan tushum	1 800 000,0

Xalq deputatlari Zomin tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-53-133-3-48-K/23-son qaroriga
2-ilova

Zomin tumani mahalliy byudjet daromadlarining tuman mahalliy byudjetida qoladigan qismining 2024-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/R	Daromad turlari	Jami
JAMI		**88 116 150,0**
1	YaTT uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 514 000,0
2	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	7 830 000,0
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	26 000 000,0
4	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	10 431 000,0
5	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	110 000,0
6	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	3 048 500,0
7	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	21 626 250,0
8	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	5 168 000,0
9	Yuridik shaxslar yer solig‘i	11 314 400,0
10	Noruda qurilish materiallari uchun yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	174 000,0
11	Xususiylashtirishdan tushum	900 000,0
12	Respublika byudjetidan o‘tkazib beriladigan daromadlar	30 356 975,0
	shu jumladan:	
12,1	Aroqdan aksiz solig‘i (shu jumladan pivo)	13 158 760,0
12,2	Mobil aloqa xizmatidan aksiz solig‘i	5 300 375,0
12,3	Tamaki aksiz solig‘i	11 897 840,0

Xalq deputatlari Zomin tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-53-133-3-48-K/23-son qaroriga
3-ilova

2024 yilgi Zomin tuman mahalliy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	Tuman byudjeti
Xarajatlar miqdori, Jami		**200 558 810,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**200 511 429,0**
1	**Maktabgacha va maktab ta’lim bo‘limi**	**32 254 781,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	32 254 781,0
2	**Sog‘liqni saqlash muassasalari**	**88 879 313,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	88 879 313,0
3	**Madaniyat muassasalari**	**1 143 604,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 143 604,0
	shundan:	
4	**Bolalar va o‘smirlar sport maktabi**	**4 075 497,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 075 497,0
	shundan:	
5	**Ijtimoiy ko‘nikma markazi**	**61 377,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	61 377,0
	shundan:	
6	**Fermer xo‘jaliklari buxgalteriya markazi**	**957 608,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	957 608,0
7	**Obodonlashtirish boshqarmasi**	**13 736 546,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	13 736 546,0
10	**Ichki yo‘llarni ta’mirlash xarajatlari**	**4 000 000,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 000 000,0
11	**Irrigatsiya bo‘limi**	**1 217 132,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 217 132,0
12	**Veterinariya bo‘limlari va Xayvon kasalliklari tashhisi markazi**	**2 267 074,0**
	shu jumladan:	

	joriy xarajatlar	2 267 074,0
13	**Tuman hokimligi Zaxira jamg‘armasi**	**1 784 412,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 784 412,0
14	**Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi**	**20 333 173,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	20 333 173,0
15	**Mahalla byudjeti jamg‘armasi**	**3 058 027,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3 058 027,0
16	**Tumani hokimligi**	**3 218 710,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3 218 710,0
17	**Hokim yordamchilari**	**4 043 731,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 043 731,0
18	**Iqtisodiyot va moliya bo‘limi**	**2 221 371,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 221 371,0
19	**Davlat soliq inspeksiyasi**	**4 253 370,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 253 370,0
20	**Kengash kotibiyati**	**241 288,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	241 288,0
21	**Yoshlar Agentligi**	**4 256 242,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 256 242,0
22	**Oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash**	**2 485 226,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 485 226,0
23	**Kambag‘allikni qisqartirish va Bandlikka ko‘maklashish bo‘limi**	**2 469 956,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 469 956,0
24	**Musiqa maktablari**	**2 907 794,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 907 794,0
25	**Axborot resurs markazi**	**645 197,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	645 197,0
26	**Xalq qabulxonasi**	**47 381,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	47 381,0

Xalq deputatlari Zomin tuman Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-53-133-3-48-K/23-son qaroriga
4-ilova

Umumdavlat soliqlaridan Zomin tuman mahalliy byudjetiga ajratmalar me’yori

Foiz hisobida

T/R	Shahar va tumanlar nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	Jismoniy shaxslar yer solig‘i	Jismoniy shaxslar mol-mulk solig‘i	Ijara to‘lovi	Aksiz solig‘i: - benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq	Yuridik shaxslar yer solig‘i	Suv resurslari-dan foydalan-ganlik uchun soliq	Noruda qurilish material-lari uchun yer qa’ridan foydalan-ganlik uchun soliq	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Xususiy-lashti-rishdan tushum (Davlat obyekt-larini sotishdan tushum)
1	Zomin tumani	25	50	100	100	100	0	80	100	100	100	50

Xalq deputatlari Zomin tuman Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-53-133-3-48-K/23-son qaroriga
5-ilova

Zomin tumani mahalliy byudjetining 2024-yil daromadlari rejasi

ming so‘mda

Hudud nomi	Jami daromad	shundan			
		O‘tkazib beriladigan daromad (Aksiz mobil, tamaki va alkogol)	Soliq rejasi	shundan	
				Shahar va tumanlar mahalliy byudjetiga ajratma qilinadigan daromadlar miqdori	Viloyat mahalliy budjetiga ajratma qilinadigan daromadlar miqdori
Zomin tumani	219 154 975,0	30 356 975,0	188 798 000,0	88 116 150,0	100 681 850,0

Xalq deputatlari Zomin tuman Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-53-133-3-48-K/23-son qaroriga
6-ilova

Zomin tuman byudjetining 2024-yil daromadlari va xarajatlarning chegaraviy hajmi

ming so‘mda

Hudud nomi	Jami daromadlar	shundan			Mahalliy budjet xarajatlari
		Mahalliy budjet daromadlar	O‘tkazib beriladigan daromad (Aksiz mobil, tamaki va alkogol)	Tartibga soluvchi transfert miqdori	
Zomin tumani	200 558 810,0	88 116 150,0	30 356 975,0	82 085 685,0	200 558 810,0

Xalq deputatlari Zomin tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-53-133-3-48-K/23-son qaroriga
7-ilova

Zomin tumani mahalliy budjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Miqdor
1	Zomin tumani	**737 000,0**

Xalq deputatlari Zomin tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-53-133-3-48-K/23-son qaroriga
8-ilova

2024 yil uchun tumanda qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

T/R	Hududlar	Soliq kodeksining 429-moddasiga asosan 1 gektar uchun bazaviy soliq stavkasi, mln.so‘mda	Xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari tomonidan qo‘llanilgan koeffitsient (0,7-3,0)		Mahalla kesimida 1 gektar uchun yer solig‘i mln.so‘mda
			kamaytiruvchi	oshiruvchi	
1	Baxt MFY	41,4	0,8		33,12
2	Beruniy MFY	41,4	0,8		33,12
3	Beshkubi MFY	41,4	0,7		28,98
4	Birlik MFY	41,4	0,8		33,12
5	Bog‘ishamol MFY	41,4	0,8		33,12
6	Bunyodkor MFY	41,4	0,8		33,12
7	G‘.G‘ulom MFY	41,4	0,8		33,12
8	G‘allakor MFY	41,4	0,7		28,98
9	Guliston MFY	41,4	0,7		28,98
10	Gulshan MFY	41,4	0,7		28,98
11	Duoba MFY	41,4	0,8		33,12
12	Yoshlik MFY	41,4	0,7		28,98
13	Istiqlol MFY	41,4	0,7		28,98
14	Qayirma MFY	41,4	0,8		33,12
15	Qo‘rg‘on MFY	41,4	0,8		33,12
16	Qo‘shtol MFY	41,4	0,7		28,98
17	Mustaqillik MFY	41,4	0,7		28,98
18	Navbaxor MFY	41,4	0,8		33,12
19	Navoiy MFY	41,4	0,7		28,98
20	Nurafshon MFY	41,4	0,8		33,12
21	Nurlikent MFY	41,4	0,7		28,98
22	Obi xayot MFY	41,4	0,7		28,98
23	Oqtepa MFY	41,4	0,8		33,12
24	Paxtakor MFY	41,4	0,8		33,12

25	Pshagor MFY	41,4	0,7		28,98
26	Taraqqiyot MFY	41,4	0,8		33,12
27	Turkman MFY	41,4	0,7		28,98
28	To‘rttom MFY	41,4	0,7		28,98
29	Ulug‘bek MFY	41,4	0,8		33,12
30	O‘zbekiston MFY	41,4	0,8		33,12
31	Xalqabod MFY	41,4	0,8		33,12
32	Hamid Olimjon MFY	41,4	0,8		33,12
33	Chilonzor MFY	41,4	0,7		28,98
34	Chorvodor MFY	41,4	0,7		28,98
35	Sh.Rashidov MFY	41,4	0,8		33,12
36	Shirin MFY	41,4	0,7		28,98
37	Yuksalish MFY	41,4	0,7		28,98
38	Nihol MFY	41,4	0,8		33,12
39	Farovon MFY	41,4	0,8		33,12

Xalq deputatlari Zomin tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-53-133-3-48-K/23-son qaroriga
9-ilova

2024 yil uchun tumanda jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda
1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

T/R	Hududlar	Soliq kodeksining 437-moddasiga asosan 1 kv.m uchun bazaviy soliq stavkasi, so‘mda	Xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari tomonidan qo‘llanilgan koeffitsient (0,7-3,0)		Mahalla kesimida 1 kv.m uchun yer solig‘i so‘mda
			kamaytiruvchi	oshiruvchi	
1	Baxt MFY	329,6	0,75		247,2
2	Beruniy MFY	329,6	0,75		247,2
3	Beshkubi MFY	329,6	0,7		230,72
4	Birlik MFY	329,6	0,75		247,2
5	Bog‘ishamol MFY	329,6	0,75		247,2
6	Bunyodkor MFY	329,6	0,75		247,2
7	G‘.G‘ulom MFY	329,6	0,75		247,2
8	G‘allakor MFY	329,6	0,7		230,72
9	Guliston MFY	329,6	0,7		230,72
10	Gulshan MFY	329,6	0,7		230,72
11	Duoba MFY	329,6	0,7		230,72
12	Yoshlik MFY	329,6	0,7		230,72
13	Istiqlol MFY	329,6	0,7		230,72
14	Qayirma MFY	329,6	0,75		247,2
15	Qo‘rg‘on MFY	329,6	0,75		247,2
16	Qo‘shtol MFY	329,6	0,75		247,2
17	Mustaqillik MFY	329,6	0,75		247,2
18	Navbaxor MFY	329,6	0,75		247,2
19	Navoiy MFY	329,6	0,7		230,72
20	Nurafshon MFY	329,6	0,75		247,2
21	Nurlikent MFY	329,6	0,7		230,72
22	Obi xayot MFY	329,6	0,7		230,72
23	Oqtepa MFY	329,6	0,75		247,2
24	Paxtakor MFY	329,6	0,75		247,2
25	Pshagor MFY	329,6	0,7		230,72
26	Taraqqiyot MFY	329,6	0,75		247,2

27	Turkman MFY	329,6	0,7		230,72
28	To‘rttom MFY	329,6	0,7		230,72
29	Ulug‘bek MFY	329,6	0,75		247,2
30	O‘zbekiston MFY	329,6	0,75		247,2
31	Xalqabod MFY	329,6	0,75		247,2
32	Hamid Olimjon MFY	329,6	0,75		247,2
33	Chilonzor MFY	329,6	0,7		230,72
34	Chorvodor MFY	329,6	0,7		230,72
35	Sh.Rashidov MFY	329,6	0,75		247,2
36	Shirin MFY	329,6	0,7		230,72
37	Yuksalish MFY	329,6	0,7		230,72
38	Nihol MFY	329,6	0,7		230,72
39	Farovon MFY	329,6	0,7		230,72